



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



TANQIDIY REALIZM VA GI DE MOPASSAN IJODI

Abdurashidova Muxtasarxon Alisher qizi

*Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti
o'zbek filologiyasi fakulteti talabasi*

Annotatsiya: *Maqolada tanqidiy realizmning kelib chiqishi va jahon adabiyotining serqirra ijodkori bo'lgan Gi de Mopassan ijodida tanqidiy realizmning unsurlari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Mopassan, tanqidiy realizm, fransuz adabiyoti, jahon adabiyoti, Balzak, Flober, Stendal, Merime.*

Realizm so'zi lotinchadan "haqiqiy" ma'nosini beruvchi so'zdan olingan bo'lib, unda voqea-hodisalar tasviri reallikka monand aks ettirilishi lozim. Tor ma'noda realizm hayotni haqiqatga muvofiq tarzda tipiklashtirish asosida yaratilgan badiiy obrazlar orqali aks ettirishga tayangan ijodiy uslub va ongli ravishda shu metodga tayangan adabiy yo'nalishni bildiradi. Bu yo'nalishning maydonga chiqishi XIX asr o'rtalariga to'g'ri keladi. Shu davr realizmi sho'ro adabiyotshunosligida **tanqidiy realizm** deb, sho'ro adabiyot metodi esa sotsialistik realizm deb yuritilgan. Tanqidiy realizm insoniyatni nurli kelajak sari yetaklamaydi, balki shu yo'lda inson duch kelishi mumkin bo'lgan to'siqlar, illatlar va sharoitni ko'rsatadi.

Tanqidiy realizm yo'nalishi Yevropa adabiyotshunosligida, xususan Fransiyada ham XIX asr uchun keng tarqalgan adabiy uslub bo'ldi. Fransuz realizmining shakllanishi mamlakatdagi muhim siyosiy voqealar bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, 1830-yil iyul oyida bo'lgan inqilob, 1831-1834-yillardagi qo'zg'olonning ta'siri katta bo'ldi. Chunki bu jarayonlar Fransiyada qirol Lui Filipp monarxiyasining inqiroziga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, o'sha yillarda matbuotning nufuzi beqiyos darajada oshdi. Shu sababdan ham adabiyotning rivojiga katta hissa qo'shildi.

Fransuz adabiyotida tanqidiy realizm Stendalning "Qizil va qora" va "Parma ibodatxonasi", Onore de Balzakning "Gorio ota", "Gobsek", "Yevgeniya Grande" asarlari, P.Merime novellalarida ifodalandi. Fransuz realizmining tub shakllanishi Beranjening qo'shiqqa oid ijodi bilan boshlangan bo'lsa-da, keyinchalik o'z o'rnini ijtimoiy romanlarga bo'shatib berdi. Bu janr orqali Balzak va Stendal kabi realistlar Fransiya siyosini to'laqonli aks ettira oldilar va uni "jamiyat oynasi" darajasiga ko'tardilar. Ayniqsa, Balzakning "Insoniyat komediyasi" turkumi jamiyatni barcha qatlamlari (moliya, siyosat, oila) bilan qamrab olgan birinchi epik panorama bo'ldi. Roman janri bu davr uchun yetakchiga aylanganligi, asarlarda psixologik tahlilning chuqurlashishi butun Yevropa adabiyotiga ta'sir o'tkazmay qolmadi. Fransuz tanqidiy realizmi namunalari Angliya, Rossiya, Amerika adabiyoti rivojida katta ahamiyat kasb etdi. Masalan, Balzakning "Inson komediyasi"dagi ijtimoiy tahlil uslubi Dostoyevskiyning (Rossiya) "Jinoyat va jazo" asaridagi qahramonlar



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



psixologiyasini ochishda poydevor bo'lgan. Tolstoyning "Anna Karenina" romani esa Gustav Floberning "Bovari xonim" asaridan ilhomlanilgan. Charlz Dikens (Angliya) o'z asarlarini yaratishda bevosita Balzakning uslubiga murojaat qilgan. Ya'ni, Balzak Parij hayotini detallashtirgan bo'lsa, Dikens Londonning ijtimoiy hayoti, kambag'al mahallalari va ishchilar sinfi hayotini to'liq va haqqoniy tasvirlaydi.

Fransuz tanqidiy realizmining yana bir yorqin vakili bu – Gi de Mopassan bo'lib, u o'zining "Hayot", "Azizim" kabi asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va axloqiy me'yorlarning buzilishi haqida so'z yuritadi. Mopassanning ijodi Gustav Flober an'alariga asoslangan bo'lib, hayotni bezaksiz, boricha tasvirlashni ijodiy prinsip sifatida qabul qiladi. Uning hikoya va novellalarida burjua jamiyatining soxta qadriyatlari, ikkiyuzlamachilik va manfaatparastlik keskin tanqid qilinadi.

Masalan, "Hayot" asarida yozuvchi inson hayotini ideal orzulardan achchiq haqiqatga tomon bosqichma-bosqich yemirilish jarayoni sifatida tasvirlaydi. Bosh qahramon Janna yosh, pokiza va romantik qarashlarga ega qiz sifatida hayotga kirib keladi, biroq turmush, ayniqsa nikoh mojarolari eri – Jyulenning xiyonatlari va jamiyatdagi real munosabatlar uni tezda aldangan va ruhiy ezilgan ayolga aylantiradi. Bundan tashqari, Janna Jyulen bilan bo'lgan ziddiyatli munosabatlar, yaqin dugonasi – grafinya Jilbertaning ikki taraflama xiyonatining ustiga o'g'li Pol de Lamarning qiynoqlari, tarbiyasidagi buzuqliklar uning tinkasini quritadi. Shuningdek, romanda insonning ijtimoiy muhitga qaramligi masalasi ham muhim o'rin tutadi. Janna o'z taqdirini o'zgartirishga qodir emasdek ko'rinadi, chunki u yashayotgan muhit-an'alar, oilaviy bosim va jamiyat normalari - uning erkin tanlovini cheklaydi. Bu jihat Mopassanning realizmini yanada kuchaytiradi: qahramon fojiasi uning shaxsiy xatolaridan ko'ra ko'proq ijtimoiy sharoit bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Yana bir mashhur asari – "Javohirot"da esa u mayda burjua qatlamining boylikka bo'lgan intilishi va ijtimoiy mavqe orttirish istagi qanday fojiaga olib kelishini ko'rsatadi. Asar qahramoni Matilda hayotiy haqiqatni emas, balki tashqi ko'rinish va obro'ni ustun qo'yadi, natijada esa o'z umrini iztirob bilan o'tkazadi. Bu orqali yozuvchi jamiyatdagi sun'iy qadriyatlarni tanqid qiladi.

Mopassanning "Azizim" romanida ham tanqidiy realizm yanada chuqurroq namoyon bo'ladi. Asar bosh qahramoni Jorj Dyurua jamiyatda yuqori mavqega erishish uchun axloqiy me'yorlarni mensimaydi, yolg'on, aldov va ayollardan foydalanish orqali boylik va martabaga erishadi. Bu obraz orqali yozuvchi burjua jamiyatining ichki mohiyatini - ya'ni muvaffaqiyat ko'pincha halollik emas, balki makkorlik va moslashuvchanlik bilan qo'lga kiritilishini ko'rsatadi. Mopassan realizmi shundaki, u qahramonlarini mutlaqo yomon yoki mutlaqo yaxshi qilib ko'rsatmaydi, balki ularni yashayotgan ijtimoiy muhit mahsuli sifatida tasvirlaydi.

Adabiyotshunoslarning ta'kidlashicha (Emil Zolya realizm va naturalizm haqidagi qarashlarida), XIX asr yozuvchilari jamiyatni ilmiy aniqlik bilan tasvirlashga intilganlar va Mopassan ham shu yo'nalishda inson psixologiyasini chuqur tahlil qilish orqali tanqidiy realizmni rivojlantirgan. Uning uslubi qisqa, aniq va lo'nda bo'lib, ortiqcha tasvirlardan



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



qochadi, bu esa hayot haqiqatini yanada ta'sirchan ko'rsatishga xizmat qiladi. Shuningdek, Mopassan ko'pincha kutilmagan yakunlardan foydalanib, o'quvchini o'ylashga majbur qiladi, bu ham tanqidiy realizmning muhim belgilaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, uning asarlari nafaqat o'z davri Fransiya jamiyatini, balki umuminsoniy muammolarni ham yoritgani sababli bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. U. Hamdamov, A. Qosimov – Jahon adabiyoti. Toshkent 2024.
2. F. Boynazarov – Jahon adabiyoti. Toshkent 2006.
3. interoncof.com
4. Shoir Normatova – Jahon adabiyoti

